

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA XORIJ TAJRIBALARI

Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi

NavDU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Dunyoning turli davlatlarida bolalar nutqini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion usullar, pedagogik yondashuvlar va dasturlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ayniqsa, Koreya, Yaponiya va Fransiyada qo'llanilayotgan kommunikativ va o'yinli metodlar, sensorli ta'lim texnologiyalari hamda bolalar bog'chalarida qo'llaniladigan interaktiv o'yinlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar nutqi, xorijiy tajriba, o'yinli ta'lim, Montessori metodikasi, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируется передовой опыт зарубежных стран в развитии речи детей дошкольного возраста. Дана информация об инновационных методах, педагогических подходах и программах, направленных на формирование и развитие речи детей в разных странах мира. В частности, были проанализированы коммуникативные и игровые методы, используемые в Корее, Японии и Франции, сенсорные образовательные технологии и интерактивные игры, используемые в детских садах. Также будут обсуждены возможности применения этого опыта в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: дошкольное образование, речь детей, зарубежный опыт, игровое образование, методика Монтессори, педагогический подход.

Abstract. This article analyzes the best practices of foreign countries in the development of speech of preschool children. Information is provided about innovative


methods, pedagogical approaches and programs aimed at the formation and development of children's speech in different countries of the world. In particular, the communicative and game methods used in Korea, Japan and France, sensory educational technologies and interactive games used in kindergartens are analyzed. Also, the possibilities of applying these experiences to the educational system of Uzbekistan will be discussed.

Key words: preschool education, children's speech, foreign experience, game education, Montessori methodology, pedagogical approach.

Hozirgi paytda maktabgacha ta'limda olib borilayotgan islohotlarning barchasi barkamol va intellektual rivojlangan, eng muhimi hayot sinovlarida o'z maqsadi va mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lgan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Dunyoda rivojlanib borayotgan mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratganimizda, rivojlanishning yetakchi kuchi sifatida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashdan iborat bo'lmoqda.. Ayni paytda kelajak avlodda ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida shakllanib borayotgan milliy tuyg'ularni yanada o'stirish, rivoj toptirishni davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bolalarning nutqini rivojlantirish sohasidagi xorij maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning barkamol rivojlanishi, ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirish hisoblanib, bu ishlar ta'lim va tarbiya dasturlari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning har bir milliy tizimi o'ziga xos bo'lib, xorij maktabgacha ta'lim tashkilotlari ilg'or tajribalariga egadir. Shuni e'tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda (Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya) bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan qamrab olinishi 80-90% ni tashkil etadi.

Koreya. Koreyada ota-onalar, o'z farzandlarining erta rivojlanishini rag'batlantirishni istab, bolasini 1 yoshiga to'lmasdan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yuborishlari mumkin. Bu yerda bolalar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va boshqalar bilan muloqot qilishning birinchi ko'nikmalarini shakllantiradilar. Uch yoshida yozuv, o'qish va hisoblashning birinchi darslari boshlanadi. Koreyadagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uch turga bo'linadi:



Koreya alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlardan biri, davlat jamiyatning eng himoyalangan qatlamlari, kam ta'minlangan oilalar va nogiron bolalarga birinchi navbatda g'amxo'rlik ko'rsatadi va shu sababli ham Koreyada inklyuziv ta'lim prinsiplari taxsinga sazovordir.

Besh yoshdan boshlab bolalar maktabga tayyorlanib borishadi. Tayyorlov guruhleri "Yuchivon" deyiladi. Bolalar forma kiyib yurishadi. Lekin bu majburiymas. Barcha darslar tushlikkacha qo'yiladi. Qo'shimcha darslar ham qo'yilishi mumkin.¹

Yaponiya. Yaponiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir. Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha, 7 yoshgacha inson bilimlarning 70 foizini, qolgan 30 foizini butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim ixtiyoriy bo'lib, ota-onalar o'z xohishlariga ko'ra odatda 4 yoshdan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga beradilar. Ota-onaning bandligini hisobga olib, bolani 3 yoshdan ham qabul qilish mumkin. Bundan tashqari, 3 yoshga to'lmagan bolalar uchun yaslilar mavjud bo'lib, lekin bu guruhlariga berish ota-onalarga tavsiya etilmaydi. Chunki bolani 3 yoshgacha tarbiyalash imkonining yo'qligi asoslar bilan bayon qilinishi lozim. Deyarli hamma maktabgacha ta'lim tashkilotlari xususiy. Ularning orasida eng asosiy o'rinni elita bog'chalari egallaydi. Agar bola bunday maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalansa, uning kelajagi yetarlicha kafolatlangan deyishimiz mumkin. Chunki bu bog'chadan keyin bola maktabda undan keyin esa hech qanday imtihonsiz universitetga qabul qilinadi.

¹ "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish". Dissertatsiya. I.I.To'ychiyeva. 2020.

Yaponiyaning “yochien” deb nomlanuvchi maktabgacha ta’lim tizimi mamlakat ta’lim tizimining muhim qismidir. Bu bolalarning ijtimoiy, hissiy va akademik rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ularni ta’limning keyingi bosqichlarida va undan keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Umuman olganda, Yaponiyaning maktabgacha ta’lim tizimi bolalarni kelajakdagi o‘quv va ijtimoiy muvaffaqiyatlariga tayyorlashdagi samaradorligi uchun yuqori baholanadi. Bu bolalarning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi va ularga hayot davomida yaxshi xizmat qiladigan qimmatli ko‘nikma va qadriyatlarni singdiradi. Yaponlar oilasida bola tarbiyasi haddan ziyod yumshoq bo‘lib bolaga kamdan kam biror narsani ta’qiqlashadi. Ammo ko‘cha-ko‘yda tanimagan begona odamlar bilan iloji boricha kirishimlilik bilan gaplashish o‘rgatiladi. Shuning uchun bog‘chada ko‘p marotaba virtual hayotdagi tanishuvlar, maner tarbiyasi o‘rgatiladi. Bolalarga etiket normalari, ularni qachon va qanday sharoitda qo‘llash o‘rgatiladi²

Fransiya. Fransiya ta’lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu maktabning ta’limiy vazifasi: boshlang‘ich maktabga tayyorlash, bolalarni o‘zini namoyon qilishga o‘rgatish. Bu bosqichni —”Onalar maktabi” deb ham yuritiladi. Maktabgacha ta’lim majburiy emas. Unga 2 yoshdan qabul qilinadi, yoshiga qarab eng kichik guruh, kichik guruh, o‘rta guruh va katta guruhlarga bo‘linadi. 3 yoshdan —Onalar maktabiga borishadi. **Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda ham, maktablarning boshlang‘ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi, Fransiyada tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:**

- **kichik guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha;**
- **o‘rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha;**

² YAPONIYA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI. (maqola) Alisher Bolibekov.2023y.

➤ **katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha**

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada 100 foiz shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.³

Fransiya maktabgacha ta'lim tizimi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion va an'anaviy metodikalarga asoslanadi. Bu metodikalar bolalarning tabiiy rivojlanish jarayonini hisobga olgan holda, kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Quyida Fransiyada keng qo'llaniladigan metodikani ko'rib chiqamiz:

Montessori metodikasi

Bu metod bolalarning mustaqil ta'lim olishiga va tabiiy qiziqishlari orqali nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Montessori maktabgacha ta'lim tashkilotlarida:

1. Bolalar har xil predmetlar yordamida nutqni rivojlantiradi (masalan, sensorika o'yinlari, tovushlarni farqlash).

2. O'z fikrlarini ifodalash uchun muloqotga asoslangan mashg'ulotlar olib boriladi.

3. Hikoya qilish va drammatizatsiya orqali so'z boyligi oshiriladi

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqni rivojlantirish faqat MTT tarbiyachilarining vazifasi emas, balki oilaviy muhit ham katta ahamiyatga ega. Masalan, Yaponiyada ota-onalar va tarbiyachilar bolalar bilan birgalikda hikoyalar tuzish va ularni ovoz chiqarib ifodalash orqali bolalarning lug'at boyligini oshirishadi. Eng muhim jihati shundaki, har bir mamlakat o'zining madaniy va pedagogik yondashuvlarini hisobga olib, bolalar nutqini rivojlantirish usullarini ishlab chiqadi. O'zbekiston ham xorijiy tajribalarni o'rganib, milliy an'analarga mos holda integratsiya qilish orqali maktabgacha ta'lim sifatini oshirishi mumkin.

³ A.A.Ikramov, G.N.Davranova, A.A.Ikramova «Qiyosiy pedagogika» O'quv qo'llanma – Buxoro, BDPI, 2022. 150 b.³

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.A.Ikramov, G.N.Davranova, A.A.Ikramova «Qiyosiy pedagogika» O‘quv qo‘llanma – Buxoro, BDPI, 2022. 150 b.
2. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish”.Dissertatsiya. I.I.To‘ychiyeva. 2020.
3. YAPONIYA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI. (maqola) Alisher Bolibekov.2023y.
4. Babayeva.D.R. ‘‘Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi’’ (Darslik)-T.:’’Barkamol fayz media’’ 2018